
“Bahor” mahallasida ham iftorlik tadbiri ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi

Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish maqsadida Farg‘ona shahar hokimligi, sektor rahbarlari va “Mahalla” xayriya jamoat fondi shahar bo‘limi tomonidan kam ta‘minlangan oilalar holidan xabar olinib, ro‘zadorlar uchun iftorlik dasturxonlari yozilmoqda.

Bugun ana shunday xayrli tadbir “Bahor” mahallasida istiqomat qilayotgan ro‘zadorlar uchun tashkillandi. Mahalla hududidagi “Rayhon” milliy taomlar majmuasida bir dasturxon atrofida yig‘ilgan mahalladoshlar bunday e‘tibordan behad xursand bo‘ldi. Nuroniylar va diniy ulamolar yurtimizga tinchlik, qut-baraka, xalqimizga ahillik tilab duolar qilishdi.

2023-04-13 16:15:35